INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA O‘SMIRLAR NUTQIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI

Qodirova Gulnoza Shukhrat qizi,
Urganch innovatsion universiteti magistranti
E-mail: polotovabarno8@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19606603

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida o‘smirlar nutqida qo‘llaniladigan frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari qiyosiy tahlilga tortiladi. Tadqiqotda empirik materiallar asosida o‘smirlar nutqidagi frazeologik birliklarning hissiy ifodalovchi va ekspressiv vazifalari aniqlangan. O‘zbek, ingliz va rus tilshunoslik maktablarining yondashuvlari tahlil qilinib, o‘smirlar nutqidagi frazeologizmlarning madaniy-psixologik asoslari ochib berilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar nutqidagi frazeologik birliklar yosh guruhiga xos emotsional holatlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizmlar, o‘smirlar nutqi, emotsional-ekspressiv xususiyatlar, psixolingvistika, qiyosiy tahli, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ эмоционально-экспрессивных особенностей фразеологизмов, используемых в речи подростков, на английском и узбекском языках. Исследование проведено на основе эмпирических материалов определены эмоционально-выразительные и экспрессивные функции фразеологических единиц в подростковой речи. Проанализированы подходы узбекской, английской и русской лингвистических школ, раскрыты культурно-психологические основы фразеологизмов в речи подростков. Результаты показывают, что фразеологические единицы в речи подростков играют важную роль в выражении специфических для данной возрастной группы эмоциональных состояний.*

Ключевые слова: *фразеологизмы, речь подростков, эмоционально-экспрессивные особенности, психолингвистика, сравнительный анализ, английский язык, узбекский язык.*

Abstract. *This article provides a comparative analysis of the emotional-expressive features of phraseological units used in adolescent speech in English and Uzbek. Based on empirical materials, the emotional-expressive and expressive functions of phraseological units in adolescent speech are identified. The approaches of Uzbek, English, and Russian linguistic schools are analyzed, and the cultural-psychological foundations of phraseological units in adolescent speech are revealed. The results indicate that phraseological units in adolescent speech play a significant role in expressing emotional states specific to this age group.*

Keywords: *phraseological units, adolescent speech, emotional-expressive features, psycholinguistics, comparative analysis, English language, Uzbek language.*

Kirish. O‘smirlik davri insonning shaxs sifatida shakllanishidagi eng murakkab va dinamik bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda til faoliyati nafaqat kommunikativ vositaga, balki shaxsning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini va ijtimoiy o‘ziga xosligini ifodalash vositasiga aylanadi. Frazeologizmlar – tilning mazmunan birlashgan, barqaror va ekspressiv qurol sifatida – o‘smirlar nutqida alohida o‘rin egallaydi.

Frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini o‘rganish psixolingvistikaning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. V.A.Xomyakov o‘z tadqiqotlarida

frazeologizmlarni “tilning emotsional-ekspressiv palitrasi” deb ta’riflagan bo‘lsa, D. B. G‘udkov rus va boshqa tillar frazeologiyasini qiyosiy o‘rgangan holda, ularning madaniy kodlanganligini ta’kidlaydi. O‘zbek tilshunosligida A. M. To‘rayev frazeologizmlarni ongning lingvistik modellari sifatida o‘rganib, ularning nutqdagi funktsional ko‘lamini aniqlagan.

G‘arb tilshunosligida J. P. Louw va E. A. Nida “Greek-English Lexicon of the New Testament” asarida semantik maydonlar nazariyasi asosida frazeologik birliklarning kontekstual va emotsional qiymatlarini tahlil qilishgan. R. W. Langaker esa kognitiv grammatika nuqtai nazaridan idiomalarning konseptual strukturasi haqida fikr yuritgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – ingliz va o‘zbek tillarida o‘smirlar nutqida qo‘llaniladigan frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini qiyosiy psixolingvistik tahli qilish va ularning yosh guruhiga xos funktsional ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqotning dolzarbligi o‘smirlar nutqidagi lingvistik xususiyatlarni chuqur o‘rganish orqali ularning psixologik va madaniy olamini tushunish zaruratidadir.

Metodologiya. Tadqiqot quyidagi metodlar yordamida amalga oshirildi:

1. **Kontent-tahlil:** Ingliz (asosan AQSh va Buyuk Britaniya) va o‘zbek o‘smirlarining internet forumlari, ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, TikTok), shuningdek, yoshlar jurnallari va adabiy asarlaridagi nutq namunasi dagi frazeologik birliklar tahlil qilindi.
2. **So‘rovnoma:** 14-17 yoshli 200 nafar o‘zbek va 200 nafar ingliz o‘smirlariga frazeologizmlarning qo‘llanish tezligi va ular bilan bog‘liq assotsiatsiyalar to‘g‘risida anketalar taqdim etildi.
3. **Eksperimental psixolingvistik usul:** O‘smirlarga turli emotsional vaziyatlarni tasvirlovchi frazeologizmlarni tanlash va ularni izohlash vazifalari berildi.
4. **Statistik tahlil:** SPSS dasturida anova va korrelyatsion tahli amalga oshirildi.

Tadqiqot materiallari 2022-2024 yillar oralig‘ida to‘plangan. Ingliz tilidagi materiallar asosan COCA (Corpus of Contemporary American English) va BNC (British National Corpus) korpuslaridan, o‘zbek tilidagi materiallar “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” va “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” asosida tahlil qilindi.

NATIJALAR. Emotsional sohalar bo‘yicha taqsimlanish O‘smirlar nutqida qo‘llaniladigan frazeologizmlarni 6 ta asosiy emotsional sohaga bo‘lish mumkin: xursandchilik, g‘azab, qo‘rquv, hayrat, umidsizlik va muhabbat. Ingliz tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan frazeologizmlar “*over the moon*” (juda baxtli), “*hit the roof*” (g‘azablangan), “scared stiff” (qo‘rqqan) kabi iboralar bo‘lsa, o‘zbek tilida “ettinchi osmonda” (baxtli), “Ko‘zi qonga to‘lmoq” yoki “Tepasochi tikka bo‘lmoq” (g‘azablangan), *“Tili kalimaga kelmay qolmoq”* – Stress holatida nutq apparatining

bloklanishi (o‘smirlar hayajonlanganda juda ko‘p uchraydi), *“A’zoyi badani titramoq”* – Qo‘rquvning jismoniy qaltiroq ko‘rinishi.

1-jadval. Ingliz va o‘zbek tillarida o‘smirlar nutqidagi frazeologizmlarning emotsional taqsimlanishi (foizda)

Emotsional soha	Ingliz tili	O‘zbek tili
Xursandchilik	28%	25%
G‘azab	22%	20%
Qo‘rquv	15%	18%
Hayrat	12%	15%
Umidsizlik	13%	12%
Muhabbat	10%	10%

Ekspressivlik darajasi Tadqiqotimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar nutqidagi frazeologizmlarning 70% dan ortig‘i kuchaytirish ma’nosini bildiradi. Masalan, ingliz tilida “I’m dead serious” (jiddiy gapiryapman) o'smirlar nutqida ushbu ibora "Hyperbole" (Mubolag'a) funksiyasini bajaradi. O'smirlar o'z his-tuyg'ularini maksimal darajada bo'rttirib ko'rsatishga moyil bo'ladilar. Nega aynan "dead"? Psixolingvistikada "o'lim" bilan bog'liq so'zlar nutqda eng yuqori nuqtani, qaytib bo'lmaslikni yoki qat'iyatni bildirish uchun ishlatiladi. Bu o'smirning o'z so'ziga nisbatan ishonchni jalb qilish strategiyasidir. J.D. Salinger asarida (The Catcher in the Rye) asar qahramoni Xolden Kolfield nutqida bu kabi konstruksiyalar juda ko'p uchraydi. U ko'pincha "dead", "hell", "crazy" kabi so'zlarni iboralarga qo'shib ishlatadi. "I was being **dead serious** about it, but he just laughed."

Ingliz tilida	**O'zbek tilida funksional o'xshashi**	**Psixolingvistik xususiyati**
I'm dead serious	**Gapim chin, hazillashmayapman**	Qat'iyatni kuchaytirish
Dead tired	**O'lib qoldim (charchab)**	Jismoniy holatni bo'rttirish
Dead right	**Mutlaqo haqsan**	To'liq qo'shilish (sub'ektiv tasdiq)

yoki “It costs an arm and a leg” (juda qimmat) Iboraning so‘zma-so‘z tarjimasi — *"qo‘l va oyoq narxida"*. Psixolingvistikada bu giperbolizatsiya (bo‘rttirish) hodisasi deb ataladi. Inson o‘zi uchun eng qadrli bo‘lgan tana a’zolarini buyumning narxi bilan qiyoslaydi. Bu o‘smir ongidagi "borini berish" yoki "erishib bo‘lmaslik" hissiyotini maksimal darajada ochib beradi. O‘zbek tilida "juda qimmat" tushunchasini ifodalovchi iboralar biroz boshqacha kognitiv modellarga asoslanadi: *“Otning kallasidek”* (pul): (Hajm va shakl orqali bo‘rttirish). *“Ot bilan tuya turmoq”* (hajm va narxga qiyoslash). O‘smirlar nima uchun *"It is very expensive"* deyish o‘rniga *"It costs an arm and a leg"*

deyishni afzal ko‘rishadi? Bunga psixolingvistik sabab aynan o‘smirlik davrida muloqotning asosiy maqsadi shunchaki axborot berish emas, balki taassurot qoldirishdir. "Arm and a leg" iborasi nutqda vizual obraz yaratadi. Bu tinglovchining diqqatini tortish va so‘zlovchining his-tuyg‘usini (shok yoki hayrat) aniqroq yetkazishga xizmat qiladi. Shu kabi iboralarda ekspressivlik yuqori darajada. O‘zbek tilida “o‘lim bilan teng” (juda xavfli), “ko‘z yoshi to‘kmoq” (ko‘p yig‘lamoq) kabi frazeologizmlarda hissiy kuchaytirish kuzatiladi.

Madaniy xususiyatlar Ingliz tilidagi ko‘pgina frazeologizmlar sport (“knock it out of the park” – muvaffaqiyatli bajarish) va texnologiyalar (“go viral” – internetda tarqalish) bilan bog‘liq bo‘lsa, O‘zbek tili frazeologizmlarining genezisiga ko‘ra tahlilini quyidagicha qilishimiz mumkin. O‘zbek tili frazeologik birliklarining semantik qatlamlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ularning aksariyati milliy turmush tarzi, tabiat hodisalari va ma’naviy-diniy qarashlar natijasida yuzaga kelgan. Quyida ushbu yo‘nalishlarni aniq misollar asosida ko‘rib chiqamiz:

1. Urf-odatlar va milliy turmush tarziga asoslangan iboralar: O‘zbek xalqining kundalik hayoti va an’anaviy o‘yinlari tilda o‘chmas iz qoldirgan. *“Oshig‘i olchi”* – bu ibora qadimiy milliy o‘yin — oshiq o‘yinidan kelib chiqqan. Oshiqning "olchi" turishi o‘yinchi uchun eng katta muvaffaqiyat hisoblanadi. Psixolingvistik jihatdan ushbu birlik o‘smir ongidagi "omad" va "muvaffaqiyat" konseptlarini vizual obraz orqali ifodalashga xizmat qiladi.

“Nonini butun qilmoq” – non o‘zbek madaniyatida rizq-ro‘z va baraka timsolidir. Insonning moddiy farovonligini ta’minlash yoki hayotini izga solishni nonning "butunligi" bilan qiyoslash xalqning hayotiy falsafasini aks ettiradi.

“Belini bog‘lamoq” – bu ibora qadimiy urf-odat — biror mas’uliyatli ishga kirishishdan oldin belbog‘ bog‘lash an’anasidan olingan. Bu o‘smir nutqida qat’iyat va ruhiy shaylik motivatsiyasini ifodalovchi kuchli vositadir.

2. Tabiat hodisalari va atrof-muhit metaforalari: Atrof-muhitdagi ob’ektlar va ularning holati insoniy munosabatlarni tasvirlash uchun lisoniy model bo‘lib xizmat qiladi. *“Boshi ochiq”* – tabiatdagi ochiqlik va chegara yo‘qligi metaforasi bu yerda insonning ijtimoiy holatiga (erkin, turmush qurmagan yoki nazoratsiz) ko‘chirilgan. Bu birlik o‘smirning jamiyatdagi mavqeyini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Sariq chaqaga olmaslik” – chaqaning qiymatsizligi (tabiiy-moddiy holat) insonning biror narsaga nisbatan sub’ektiv mensimaslik munosabatini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Bu ibora o‘smirlar nutqidagi rad etish va inkor etish psixologiyasini yaqqol ko‘rsatadi.

3. Diniy va ma’naviy-axloqiy tushunchalar bilan bog‘liq iboralar: Xalqning ma’naviy dunyoqarashi va e’tiqodi tilning eng chuqur qatlamlariga singib ketgan. *“Yuzini yorug‘ qilmoq”* – bu ibora iymon, poklik va ma’naviy yuksaklik nuri bilan bog‘liq

qadimiy tushunchalarga borib taqaladi. Muvaffaqiyatga erishgan insonning "yuzi yorug‘" bo‘lishi — bu nafaqat natija, balki ijtimoiy va axloqiy oqlanishning psixolingvistik ifodasidir. *“Qiyomat qoyim bo‘lmoq (yoki qilmoq)”* – Islomiy tasavvurdagi oxirat va undagi mislsiz tartibsizlik, dahshat obrazi tilga ko‘chib, o‘ta kuchli to‘polon yoki stressli vaziyatni ifodalash uchun ishlatiladi. O‘smirlar o‘z hayotlaridagi kutilmagan, shovqinli voqealarni aynan shu ibora bilan bo‘rttirib (giperbolizatsiya) ko‘rsatishga moyildirlar. Ushbu frazeologizmlar o‘zbek tili sohiblarining mentalitetini belgilovchi tayanch nuqtalar bo‘lib, o‘smir yoshidagi insonlar uchun murakkab hissiyotlarni tayyor, obrazli qoliplar orqali ifodalash imkonini beradi.

Gender farqlari. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayol jinsiga mansub o‘smirlar o‘z tengdoshlariga nisbatan hissiy bo‘yoqdor frazeologizmlarni 1,3 baravar ko‘proq qo‘llaydilar. Bu holat qiz bolalar psixologiyasidagi emotsional ochiqlik va voqelikni subyektiv idrok etishga moyillik bilan izohlanadi. 1. O‘zbek o‘smir qizlari nutqida o‘z kechinmalarini ifodalashda ko‘proq ichki ruhiy holat va nozik hissiyotlarni aks ettiruvchi somatik iboralardan foydalanishadi: *“Yuragi shig‘ etib ketmoq”* – To‘satdan hayajonlanish yoki qo‘rqish holati (ko‘p hollarda kutilmagan emotsiyalar uchun ishlatiladi). *“Ichidan qirindi o‘tmoq”* – Kuchli rashk, pushaymonlik yoki alam hissini ifodalashda qo‘llaniladi. Bu ibora o‘smir qizning ruhiy iztirobini obrazli va chuqur ko‘rsatib beradi. *“Dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaslik”* – Befarqlik yoki xotirjamlikni ifodalashda ishlatiladi (o‘smir qizlarning o‘zini tutishi yoki muayyan vaziyatga kinoyali munosabati). 2. Ingliz o‘smir qizlari nutqida emotsiyalar ko‘pincha fazoviy va harakatli metaforalar orqali namoyon bo‘ladi: “*To be on cloud nine*” – O‘ta yuqori darajadagi xursandchilik va hayajon (o‘zbek tilida *"boshi osmonga yetmoq" yoki “ettinchi osmonda”* iboralari ekvivalent bula oladi). “*To have butterflies in one's stomach*” – Kuchli hayajon yoki yoqimli bezovtalik (asosan yangi munosabatlar yoki mas'uliyatli uchrashuvlar oldidan ishlatiladigan tipik o'smirona ibora). Agar o‘g‘il bolalar nutqida ko‘proq shiddat, harakat va tajovuzkorlikni ifodalovchi iboralar (masalan, o‘zbek tilida *"do‘ppisini osmonga otmoq"*, ingliz tilida *"to kick some butt"*) ustunlik qilsa, qizlar nutqida hissiy muvozanat, ichki kechinma va munosabatlarni tavsiflovchi birliklar yetakchilik qiladi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar nutqidagi frazeologizmlar nafaqat til birliklari, balki yosh guruhining psixologik holati, qadriyatlari va madaniy kodlarini aks ettiradi. Rus tilshunosi V. N. Teliyaning fikricha, frazeologizmlar “milliy dunyoqarashning lingvistik ko‘rinishi”dir. Bizning tadqiqotimiz ham shuni tasdiqlaydiki, o‘zbek o‘smirlari qo‘llaydigan frazeologizmlar ko‘proq an’anaviy qadriyatlar bilan, ingliz o‘smirlari nutqi individualistik va texnologik dunyoqarash bilan bog‘liq.

Ingliz tilshunosi M. A. K. Halliday tilning interpersonal funktsiyasini ta’kidlab, frazeologizmlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini qayd etgan.

O‘smirlar nutqida frazeologizmlar aynan shu funktsiyani bajaradi – ular orqali yosh guruhiga integratsiya, ya’ni “o‘zlariga xoslik” hissi mustahkamlanadi.

O‘zbek tilshunosi O‘. Madvaliyev o‘z tadqiqotlarida o‘smirlar tilining frazeologik boyligi ularning ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Bizning tadqiqotimiz ham shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek o‘smirlari o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda ko‘proq obrazli va poetik frazeologizmlarni qo‘llashadi.

R.W.Langakerning kognitiv grammatika nuqtai nazaridan, frazeologizmlar tushunchalarning modellashtirilgan shakllari hisoblanadi. O‘smirlar nutqida frazeologizmlarning keng qo‘llanilishi ularning kognitiv jarayonlarining rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning cheklovlari shundan iboratki, faqat ikki til qiyosiy o‘rganilgan va yosh oralig‘i nisbatan tor. Kelajakda boshqa tillarni qamrab olgan ko‘proq qiyosiy tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarida o‘smirlar nutqidagi frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari o‘ziga xos milliy-madaniy va psixologik xususiyatlarni aks ettiradi. Ingliz o‘smirlari frazeologik birliklarni ko‘proq individualistik va texnologik kontekstda, o‘zbek o‘smirlari esa an’anaviy va jamoa ruhiyati bilan bog‘liq holda qo‘llashadi. Biroq, ikkala tilda ham frazeologizmlar o‘smirlarning hissiy holatlarini ifodalash va ularning ijtimoiy o‘ziga xosligini namoyon qilishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari psixolingvistika, yosh lingvistikasi va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гудков Д. Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: Гнозис, 2003.
2. Телия В. Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.
3. Хомяков В. А. Введение в изучение сленга. – М.: Высшая школа, 1980.
4. Halliday, M. A. K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. – London: Edward Arnold, 1978.
5. Langacker, R. W. Foundations of Cognitive Grammar: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987.
6. Louw, J. P., & Nida, E. A. Greek-English Lexicon of the New Testament: Based on Semantic Domains. – New York: United Bible Societies, 1989.
7. Madvaliyev, O‘. O‘zbek tilida yoshlar nutqining lingvopragmatik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2019.
8. Ne’matov, H. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
9. Sodiqova, S. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
10. Тўраев, А. М. Фразеология ва когнитив лингвистика. – Тошкент: Университет, 2005.